

# FARG‘ONA VODIYSIDA SABZAVOTCHILIK, POLIZCHILIK, BOG‘DORCHILIK VA UZUMCHILIK: TARMOQLARDAGI O‘ZGARISHLAR HAMDA YANGI NAVLARNING JORIY ETILISHI (1925–1991-YILLAR)

**Haqqulov Mehridin Yunusovich**

Osiyo xalqaro universiteti 1-bosqich doktoranti,

“Xorijiy til va ijtimoiy fanlar” kafedrası o‘qituvchisi

mexriddinhaqqulov5756@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22635770>

Qabul qilindi: 1-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 3-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 5-sentabr 2026-yil

## Annotatsiya

Maqolada 1925–1991-yillarda Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatlarida sabzavotchilik, polizchilik, bog‘dorchilik va uzumchilik tarmoqlarining holati o‘rganiladi. Biz bu tarmoqlarning rivoji paxta yakkahokimligi bilan bevosita bog‘liq holda, unga qoldiq tamoyili asosida bo‘ysundirilganini ochib berishga harakat qilamiz. Ayni paytda yangi navlarni yaratish va joriy etish jarayoni - xalq seleksiyasidan ilmiy muassasalar tizimigacha - alohida tahlil qilinadi. Ishda urush yillaridagi kengayish, 70–80-yillardagi agrosanoat integratsiyasi hamda tomorqa xo‘jaligining ortib borgan roli masalalariga to‘xtalib o‘tilgan.

## Kalit so‘zlar:

Farg‘ona vodiysi, sabzavotchilik, polizchilik, bog‘dorchilik, uzumchilik, xalq seleksiyasi, nav, tomorqa, agrosanoat birlashmasi, monokultura.

## Kirish.

Farg‘ona vodiysi O‘rta Osiyoda mevalilik va polizchilik an‘analari eng qadimiy bo‘lgan hududlardan biri sanaladi. Bu yerda o‘simlik navlari asrlar davomida dehqonlarning o‘zi tomonidan tanlab borilgan, ayrim qovun va uzum navlari esa muayyan qishloq nomi bilan atalgan. Sovet davrida bu an‘ana yo‘qolib ketmadi, biroq davlat rejasi tizimida u ikkinchi darajali o‘rinni egalladi. Maqolaning maqsadi - 1925–1991-yillarda vodiyni uch viloyatida dehqonchilikning paxtadan tashqari tarmoqlari qanday o‘zgarganini va bu o‘zgarishlarda yangi navlarni joriy etish jarayoni qanday o‘rin tutganini aniqlashdan iborat.

**Mavzuning o‘rganilish darajasi.** Sovet agrar siyosatining oziq-ovqat masalasiga ta’sirini birinchilardan bo‘lib R.X.Aminova ochiq muhokamaga qo‘ydi. U monokulturaning kuchayishi natijasida azaldan ajoyib mevalari va poliz ekinlari bilan mashhur bo‘lgan o‘lka bugungi kunda o‘z aholisini ular bilan ta’minlay olmayotganini, oziq-ovqat narxlarini yildan-yilga o‘sib borayotganini yozgan edi [2, 39-b.]. “O‘zbekistonning yangi tarixi”ning ikkinchi kitobida tarmoqning tashkiliy tarixi - agrosanoat birlashmalari va vazirlik tuzilishi - bo‘yicha ma’lumotlar keltiriladi [1]. Seleksiya tarixiga oid ma’lumotlar X.U.Burnevning qo‘llanmasida umumlashtirilgan [7]. Etnografik jihatdan qishloq oilasining tomorqa xo‘jaligi S.P.Polyakov tomonidan tadqiq etilgan [6]. Biroq bu ishlarning hech birida vodiyni uch viloyati alohida obyekt sifatida ajratilmagan.

**Manbalar va tadqiqot metodlari.** Ishda “O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi” jurnalining 1960-yilgi sonlari, umumlashtiruvchi tarixiy nashrlar, seleksiya va urug‘chilikka oid qo‘llanmalar hamda etnografik ekspeditsiya materiallari qiyosiy tahlil qilindi. Statistik ma‘lumotlar guruhlangan holda taqdim etildi. Manbalarning turli tabiati inobatga olinib, ular o‘zaro qiyoslash yo‘li bilan tekshirildi.

**Tadqiqot natijalari.** 1920-yillarda meva va uzum yetishtirish kooperatsiya tizimida o‘z o‘rniga ega edi. 1928-yil oxirida respublikada 205 ta meva-uzumchilik shirkati faoliyat ko‘rsatgan [1, 337-b.]. Bu shirkatlar mahalliy bozor bilan bog‘liq bo‘lib, dehqon xo‘jaligining an‘anaviy yo‘nalishini saqlab turgan. Yalpi jamoalashtirish va 1930-yildagi “to‘rtidan uch qism maydonga chigit” talabi bu tizimni buzdi [1, 357-b.].

Urush yillari, bir qarashda ziddiyatli tuyulsada, tarmoq uchun kengayish davri bo‘ldi. Front va evakuatsiya qilingan aholini ta‘minlash zarurati sabzavot va poliz maydonlarini kengaytirishga majbur qildi. Farg‘ona viloyatida sug‘oriladigan yerlarning 4 foizi sabzavot va poliz ekinlariga ajratildi [1, 447-b.]. Respublika miqyosidagi o‘zgarishlar quyidagi jadvalda ko‘rinadi.

#### 1-jadval

#### Urush yillarida sabzavot, kartoshka va uzumzor maydonlarining o‘zgarishi

| Ko‘rsatkich                    | 1939–1940-yillar | 1942–1943-yillar | O‘zgarish  |
|--------------------------------|------------------|------------------|------------|
| Sabzavot ekiladigan maydon, ga | 16 517           | 29 000           | +12 483    |
| Kartoshka maydoni              | -                | -                | +15 000 ga |
| Uzumzorlar maydoni, ga         | 26 661           | 31 723           | +5 062     |

*Manba: O‘zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. – Toshkent: Sharq, 2000. – 448-bet.*

Shu bilan birga bog‘dorchilik katta zarar ko‘rdi: 1940-yilga nisbatan ho‘l meva yetishtirish kamaydi [1, 448-b.]. Buning sababi tushunarli - bir yillik ekinlarni tez kengaytirish mumkin, mevali daraxtzorni esa yo‘q. Ayni paytda vodiy xo‘jaliklari mahsuloti front va gospitalarga yuborib turildi: 1941-yil noyabrda Andijondan yaradorlarga 5 mingdan ortiq shisha uzum vinosi, 7000 kilogramm ho‘l va quruq meva jo‘natilgan [1, 457-b.].

50-60-yillarda respublika rahbariyati Markaz oldiga faqat paxtachilikni emas, sho‘lichilik, sabzavotchilik, chorvachilik va boshqa tarmoqlarni ham rivojlantirish zarurligi haqida tashabbus bilan chiqdi [1, 547-b.]. Ilmiy ta‘minot ham shakllana bordi. Sabzavot ekinlari seleksiyasi bo‘yicha ishlar respublikada 1913–1916-yillarda tashkil etilgan Turkiston va Mirzacho‘l qishloq xo‘jalik tajriba stansiyalaridan boshlangan edi; keyinchalik bu ishlar O‘zbekiston o‘simlikshunoslik ilmiy-tekshirish institutiga o‘tdi, uning Andijon va Surxondaryo viloyatlarida tajriba bo‘limlari faoliyat ko‘rsatdi [7]. Ilmiy seleksiyaning ilk natijalari S.M.Jegalov rahbarligida qisqa muddatda - 1920–1927-yillarda - sabzavot ekinlarining 76 ta navi yaratilishi bilan bog‘liq [7].

Xalq seleksiyasining o‘rni esa hech qachon yo‘qolmadi. Nomlari saqlanib qolmagan mahalliy seleksionerlar piyoz, bodring, ildizmevali sabzavotlar, tarvuz va qovoqning ajoyib navlarini, shuningdek bir qancha qovun navlarini yaratganlar; bu navlarning ko‘pchiligi keyinchalik ilmiy muassasalar tomonidan ajratib olinib rayonlashtirilgan [7]. Qovoq ekinlari bo‘yicha keltirilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, Farg‘ona vodiysida 29 xil qovoq navi ekilgan - bu Zarafshon vodiysidan (50 nav) keyingi eng yuqori ko‘rsatkichlardan biri [7].

Sabzavotchilikda 50-yillarning oxiridan kimyoviy usullar joriy etila boshladi. 1959-yilga kelib mamlakatda ishlangan 140 xil va chet mamlakatlardan keltirilgan 30 xil dorivor sinab ko‘rilgan, ularning bir qanchasi begona o‘tlarni yo‘qotish uchun dehqonchilikda keng qo‘llanila boshlagan edi; gerbitsidlarni sabzavotchilikda qo‘llash bo‘yicha dastlabki tajribalar 1958–1959-yillarda Toshkent viloyati xo‘jaliklarida o‘tkazildi [4, 15-b.]. Vodiy xo‘jaliklariga bu tajriba keyinroq yetib bordi, bu esa qo‘l mehnatining ulushi bu yerda uzoqroq saqlanganini ko‘rsatadi.

1970-yillarda tarmoq tashkiliy jihatdan yiriklashtirildi. 1975-yilda “O‘zmevasabzavotuzumsanoat” respublika agrosanoat birlashmasi tashkil etildi, u meva, uzum, sabzavot, kartoshka va poliz ekinlarini

yetishtirish bilan shug'ullanardi. Uning negizida 1981-yilda respublika meva-sabzavot xo'jaliklari vazirligi tuzildi: vazirlik 275 ta ixtisoslashtirilgan davlat xo'jaligini, 18 ta vinochilik va 11 ta konserva zavodini birlashtirdi, ularda 190 mingdan ortiq kishi mehnat qilardi. 80-yillarning o'rtalariga kelib 15 ta ishlab chiqarish-agrar birlashma mavjud bo'lib, ular 79 ta bog'dorchilik-uzumchilik xo'jaligini, jumladan 10 ta sovxoz-zavodni o'z ichiga olgan edi [1, 548-b.].

Tashkiliy yiriklashuv texnik ta'minot bilan qo'shib olib borilmadi. Markaziy hokimiyat organlari asosiy e'tiborni paxtachilikni kompleks mexanizatsiyalashga qaratgani sababli boshqa tarmoqlar chetda qoldi: sabzavot ekishning mexanizatsiyalash darajasi atigi 24 foizni tashkil etdi [1, 552-b.]. Bundan ham muhimi - O'zbekiston SSRda bog'dorchilik, sabzavotchilik va uzumchilik uchun mo'ljallangan mashinalar umuman ishlab chiqarilmasdi [1, 524-b.]. Vodiy sharoitida, ortiqcha ishchi kuchi mavjud bo'lgan joyda, bu holat vaqtincha muammo tug'dirmagandek ko'rindi, biroq mahsulot tannarxi va sifatiga bevosita ta'sir qildi.

1980-yillarga kelib tarmoqda inqiroz belgilari aniq namoyon bo'ldi. 1985-yilda 1980-yilga nisbatan sabzavot ekinlari hosildorligi gektariga 221 sentnerdan 196 sentnerga, poliz ekinlari hosildorligi 126 sentnerdan 102 sentnerga tushib qoldi; yalpi hosil bo'yicha sabzavotlar 73,5 ming tonna, oziq-ovqat poliz ekinlari 255 ming tonna kam olindi [1, 561-b.].

Ayni shu yillarda tomorqa xo'jaligining roli ortdi. Sh.Rashidov qishlog'ida bandlik muammosi kuchaygan sharoitda yagona chora tomorqa uchastkalarida mehnat qilishga zarur shart-sharoit yaratib berishdan iborat deb hisobladi; 80-yillarning boshlarida jamoat ishlab chiqarishida band bo'lmagan kishilar tomorqada ishlab 2,5 milliard so'm miqdorida mahsulot yetishtirdilar [1, 549-b.]. Dala tadqiqotlari bu mahsulotning asosan bozorga yo'naltirilganini ko'rsatadi: O'rta Osiyo sharoitida tomorqa uchastkasi me'yori 0,15 gektarni tashkil etgan, bu yer esa oilani oziq-ovqat bilan ta'minlashdan ko'ra daromad manbai vazifasini bajargan [6, 22–23-b.]. Farg'ona vodiysining dehqonchilik an'anasi kuchli tumanlarida ham shunga o'xshash manzara qayd etilgan [6, 33-b.].

**Muhokama.** Keltirilgan ma'lumotlar bir qarashda ziddiyatli ko'rinadi: bir tomondan, tarmoq bo'yicha yirik tashkiliy tuzilmalar barpo etilgan, ilmiy muassasalar tarmog'i ishlagan, navlar rayonlashtirilgan; ikkinchi tomondan, hosildorlik pasaygan va aholi o'zini meva-sabzavot bilan ta'minlay olmagan. Bu ziddiyatning ildizi resurslarni taqsimlash tartibida edi. Yer, suv, texnika va mineral o'g'itning ustuvor qismi paxtaga ajratilgan, qolgan tarmoqlar esa qoldiq bilan qanoatlanishga majbur bo'lgan.

Mahsulot yetishtirishning tobora tomorqaga siljib borishi. Bu, bir tomondan, aholi ehtiyojini qondirgan, ikkinchi tomondan, jamoat ishlab chiqarishidagi tarkibiy nuqsonni yashirgan. Rasmiy statistika ko'rsatkichlari pasayib borgan bir paytda bozorda mahsulot mavjud bo'lishining sababi ham shunda.

Vodiyda navlarning asosiy qismi tarixan xalq seleksiyasi mahsuli bo'lgan va ilmiy muassasalar ko'p hollarda mavjud mahalliy navlarni ajratib olish, tavsiflash va rayonlashtirish bilan shug'ullangan [7]. Bu esa sovet davrida tarmoqning yutuqlarini baholashda ehtiyotkorlikni talab qiladi: yaratilgan deb ko'rsatilgan ayrim navlar aslida asrlar davomida shakllangan mahalliy shakllarning rasmiylashtirilgan ko'rinishi edi.

**Xulosa.** 1925–1991-yillarda Farg'ona vodiysida sabzavotchilik, polizchilik, bog'dorchilik va uzumchilik paxtachilikka nisbatan tobe holatda rivojlandi. Tarmoqning kengayishi asosan ikki holatda kuzatildi: urush yillarida majburiy zarurat tufayli va 70-yillardan boshlab agrosanoat integratsiyasi doirasida tashkiliy jihatdan. Biroq texnik ta'minotning yo'qligi - respublikada bu tarmoqlar uchun mashina ishlab chiqarilmagani va mexanizatsiya darajasining pastligi - erishilgan tashkiliy yutuqlarni samarasiz qildi. 80-yillarga kelib hosildorlikning pasayishi va mahsulot yetishtirishning tomorqaga siljishi tizimning ichki zaifligini ochib berdi. Navlarni joriy etish jarayonida esa mahalliy xalq seleksiyasi an'anasi asosiy manba bo'lib qoldi.

### Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob: O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, 2000. – 688 b.
2. Аминова Р.Х. Аграрные преобразования в Узбекистане 20-х годов // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – 1989. – № 9. – С. 32–39.

3. Аминова Р.Х. Критика буржуазных концепций решения национального вопроса в СССР (на примере Узбекистана) // Общественные науки в Узбекистане. – 1980. – № 3. – С. 46–52.
4. Бегона ўтларни йўқотиш — сабзавот ҳосилини оширишда катта роль ўйнайди // Ўзбекистон кишлок ҳўжалиги. – 1960. – № \_\_. – 15-бет.
5. Максумов З., Маннонов Н.М., Иброҳимов Г.А., Сорокин М.А. «Ўзбекистон беш йиллиги» тажриба совхозиди пахта етиштиришнинг янги технологияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1971. – 31 б.
6. Поляков С.П. Традиционализм в современном среднеазиатском обществе. – Москва: Знание, 1989. – 112 с.
7. Бурнев Х.У. Сабзавот экинлари селекцияси ва уруғчилиги. – Тошкент: Меҳнат, 1999.
8. Тухсинов М., Асронов А., Отахонов Н. Дала экинлари уруғчилиги ва уруғшунослиги. – Фарғона: «Фарғона» нашриёти, 1999. – 208 б.